

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Jo'rayeva Kamola Hamza qizi

Buxoro davlat universiteti pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Kalit so'zlar: *Xalqaro baholash, dasturlar, PISA, O'qish savodxonligi Matematik savodxonlik, Moliyaviy savodxonlik, Tabiiy-ilmiy savodxonlik*

Annotatsiya: *Xalqaro baholash dasturlari, ta'lim tizimlarining samaradorligini o'rganish va o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yuqori sifatli ta'lim jarayonlarini ta'minlashda yordam berishi uchun xizmat qiladi.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.12.2018 yildagi 997-son Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bunday ilg'or tajribalarni ta'lim tizimimizga jalb qilish o'quvchilarning bilim salohiyati oshirishga hamda kreaktiv o'ylashga katta yordam beradi. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida 2030-yilga borib PISA o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo'yicha vazifalar belgilangan

Umumiy o'rta ta'lim tizimi sifatining uchta asosiy xalqaro qiyosiy tadqiqoti - PISA, TIMSS va PIRLS bir-birini to'ldiradi. Ushbu uchta tadqiqotni bir vaqtning o'zida o'tkazish yanada keng qamrovli bo'lishni ta'minlaydi.

Ta'lim tizimi haqidagi ma'lumotlar, uning turli jihatlarini baholash. PISA tadqiqoti natijalarini taqqoslash, TIMSS va PIRLS esa o'qish, tushunish, matematika va tabiiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

PISA: umumiy ta'lim sifatini xalqaro qiyosiy o'rganish (Programme for International Student Assessment). Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning maktabda olgan bilim va tajribasidan inson faoliyati, muloqot va ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida keng ko'lamli hayotiy vazifalarni bajarish uchun foydalanish qobiliyatini baholashdan iborat.


TIMSS: Umumiy ta'lim sifatini xalqaro qiyosiy o'rganish (Uchinchi xalqaro matematika va fanlarni o'rganish). Tadqiqotning asosiy maqsadi - boshlang'ich va o'rta maktablarda matematika va tabiatshunoslik ta'limi sifatini qiyosiy baholash.

PIRLS: Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganish bo'yicha taraqqiyot. Tadqiqot dunyo mamlakatlaridagi boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish va matnni tushunish darajasi va

sifatini taqqoslash, shuningdek, o'qishga o'rgatish jarayonini takomillashtirish maqsadida milliy ta'lim tizimlaridagi farqlarni aniqlash va izohlash maqsadida olib boriladi.

ICILS: Xalqaro kompyuter va axborot savodxonligini o'rganish. Tadqiqotning maqsadi axborot asrida o'quvchilarning o'qish, mehnat va hayotga tayyorgarligini baholash, ishtirokchi mamlakatlarda 8-sinf o'quvchilarining kompyuter va axborot savodxonligi sohasidagi tayyorgarlik darajalarini o'rganish, aniqlangan vazifalarni tahlil qilishdan iborat. tafovutlar va milliy va xalqaro miqyosda ushbu sohadagi ta'limni rivojlantirishga yordam berish.


O'zbekiston ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi



PISA - o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturdir. Bu dastur turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan.

PISA - xalqaro baholash mezonini beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarning bilim sifati monitoring qilinadi. Tadqiqot yo'nalishlari:



O'zbekiston quydagi uchta 1.o'qish savodxonligi, 2.matematik savodxonlik, 3.tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishlari bo'yicha ishtiroki etishi ko'zda tutilmoqda.

Bilimlarni qo'llay olish salohiyati. PISA savolida o'quvchidan aniq bir ma'lumotni bilish talab qilinadigan savol berilmaydi.

PISA testlari 5 ta yoʻnalish boʻyicha oʻqish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik oʻtkaziladi. Testlarda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning mazkur yoʻnalishlar boʻyicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va koʻnikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

PISA sinovlarida toʻrt xil sinov usulidan foydalaniladi:

Bir javobli testlar;

Bir nechta javobli testlar;

Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;

Biror muammoning yechimi boʻyicha oʻquvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar boʻladi, oʻquvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, oʻquvchi ijodkorligi qoʻllab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda oʻquvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.

Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning birinchi afzalligi taʼlim tizimlarini baholash va taʼminlashda obyektivlikni taʼminlashdir. Ushbu dasturlar, obyektiv maʼlumotlar va maʼlumotlarga asoslangan koʻrsatkichlarni taqdim etish orqali taʼlim tizimlarini baholashga yordam beradi. Bu usul, oʻqituvchilar va oʻquvchilar uchun adolatli va aniq baholarni taʼminlash imkonini beradi va taʼlim jarayonlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar roʻyxatini aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchi afzalligi Xalqaro baholash dasturlari taʼlim tizimlarining mustahkamlanishini taʼminlashga yordam berishi. Xalqaro baholashning asosiy maqsadi, taʼlim tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirishga yordam berishdir. Bu dasturlar, taʼlim jarayonlarida qaysi yoʻnalishlarda toʻgʻri rivojlanish kerakligini aniqlashda oʻqituvchilarga va tashkilot rahbarlari tomonidan foydalanish imkonini beradi. Bu esa taʼlim tizimlarining qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf qilishga imkon beradi.

Xulasa qilib aytadigan boʻlsak, baholash hozirgi taʼlim tizimining asosiy va ajralmas qismidir. Shu oʻrinda aytishimisiz kerakki mamlakatimiz taʼlim sifatini oshirishga, xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik koʻrish masalasiga alohida eʼtibor qaratmoqda va taʼlim tizimiga bir qator ilgʻor xorijiy texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bularning barchasi albatta mamlakatimiz oʻzini rivojlangan davlatlar qatorida koʻrish va peshqadam boʻlishi ham uchundir. Zero, kelajak yoshlar qoʻlida. Shuning uchun ham mamlakatimiz prezidenti yoshlarga alohida eʼtibor qaratib, taʼlim tizimini tubdan isloh qilishga kirishmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022—2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi 98 PF-60-son farmoni va uning 1-ilovasi - // Elektron manba.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

4. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma).